

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

NASIMOV RAVSHANJON AZIMOVICH

SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISH YO‘LLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Огловления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Nasimov Ravshanjon Azimovich

Soliq yukini optimallashtirish yo‘llari..... 3

Насимов Равшанжон Азимович

Пути оптимизации налогового бремени 31

Nasimov Ravshanjon Azimovich

Ways of tax burden optimization 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 66

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

NASIMOV RAVSHANJON AZIMOVICH

SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISH YO‘LLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B 2023.4. PhD/Iqt3509 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Normurzayev Umid Xolmurzayevich
iqtisodiyot fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Kuzieva Nargiza Ramazanovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tulakov Ulug'bek Toshmamatovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «__»_____ soat __dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__»_____kuni tarqatildi.
(2024-yil «__»_____dagi __raqamli reestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoykulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlari moliya-soliq tizimida azaliy muammolardan biri sifatida soliq yukini optimal taqsimlash va shu orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan uzoq yillarga mo'ljallangan moliyaviy strategiyalar va taktikalarga keng e'tibor berib kelinmoqda. Xalqaro valyuta fondining ma'lumotlariga ko'ra¹, bugungi kunda jahon mamlakatlarida soliq yukini baholash, tahlil qilish va aniqlashning bir qator tavsivaviy xarakterga ega bo'lgan usullarni qo'llash asosida mamlakatlarning soliq siyosatining samaradorligiga baho berilmoqda, jahon hamjamiyati uchun soliq yukining o'rtacha darajasi (o'ttiz besh foizdan oshmaslik)da mavjud bo'lishligi jahon mamlakatlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning bir omili sifatida qarab kelinmoqda.

Keyingi yillarda aksariyat xorijiy davlatlarda milliy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda byudjet hamda soliq to'lovchilarning moliyaviy uyg'unligini ta'minlash asosida soliq yukini optimal taqsimlash jarayonlariga keng urg'u berish bilan bir qatorda, bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini rag'batlantirish tendensiyasini kuchaytirib bormoqda. Bundan tashqari ko'pgina ilmiy markazlarda soliq yuki va uning iqtisodiyotga ta'sirini yalpi ichki mahsulot, narx, inflyatsiya, investitsiya, mehnat va ist'emol bozori bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarga keng ustuvorlik berib kelmoqda.

Bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida soliq tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishi bo'lgan adolatli soliqqa tortishni o'rnatishga qaratilgan soliq siyosatining mazmunini soliq yukini muntazam kamaytirib borish evaziga makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni yana kuchaytirishga qaratilgandir. "Shu bilan birga, o'rganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o'sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko'rsatdi, xususan: umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi"²ni kamaytirishga keng ustuvorlik qaratib kelinmoqda. Bu vazifalar va maqsadlarga erishish esa, soliq yukini soliq to'lovchilarga soliqqa tortishning adolatlilik prinsiplarini qo'llagan holda taqsimlash va uni optimallashtirib borish kabi masalalarning yechimlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish taqozo etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son

¹ <http://elibrary-data.imf.org>.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги ПФ-5468-сон "Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида"ги Фармони.

“Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 15-sentyabrdagi PF-6314-son “Tadbirkorlik subyektlari uchun ma‘muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2011-yil 4-apreldagi PF-4296-son “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, farmonlari, 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 13-sentyabrdagi PQ-374-son “Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘rganilayotgan mavzu doirasidagi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, xorijlik olimlardan A.Agrawal, G.Zodrow, C.Rosell, T.Simcoe, S.Appelt, M.Bajgar, Ch.Criscuolo, Fe.Galindo-Rued, S.Appelt, V.Gorodnikova, L.M.Goxberg, G.A.Gracheva, I.A.Mayburov, V.T.Kulikova, A.P.Goftman, A.A.Usovetskiy, D.V.Lazutina, E.I.Komarova, A.N.Rogojin, E.Balatskiy, A.Drobozina, B.Ragozin, V.Belostotskaya, D.Chernik³larning ilmiy tadqiqotlarida soliq yuki bilan bog‘liq ilmiy muammolar o‘rganilib tadqiq qilingan.

³ Agrawal, A, C Rosell and T Simcoe (2020), “Tax Credits and Small Firm R&D Spending”, American Economic Journal: Economic Policy 12(2): 1-21; Silvia Appelt, Matej Bajgar, Chiara Criscuolo, Fernando Galindo-Rueda. “Effectiveness of R&D tax incentives in OECD economies” 14 October 2020; Appelt, S, M Bajgar, C Criscuolo and F Galindo-Rueda (2020), “The effects of R&D tax incentives and their role in the innovation policy mix: Findings from the OECD microBeRD project, 2016-19”, OECD Science, Technology and Industry Policy Papers, No. 92, OECD Publishing, Paris., Куликова Татьяна Вениаминовна. Инструменты планирования налоговой нагрузки хозяйствующих субъектов. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иваново 2004. С. 20., Гофтман Анна Павловна. Методика оценки налоговой нагрузки предприятий малого бизнеса в границах «налогового коридора». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иваново-2008. С.24., Усовецкий Артем Анатольевич. Методы оптимизации налоговой нагрузки предприятий (на примере налога на добавленную стоимость). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2003. С. 11., Лазутина Дарья Васильевна. Налоговая нагрузка и методы её расчета. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Тюмень – 2005. 25. С., Комарова Елена Ивановна. Налоговая нагрузка на экономику региона в условиях развития налоговой системы Российской Федерации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Оренбург-2007. 11с. Рогожин Антон Николаевич. Налоговая нагрузка в системе налоговой политики государства и организаций. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Саратов – 2012. с 12., Балацкий Е. Лафферовы эффекты и финансовые критерии экономической деятельности//МЭиМО. –М.: 1997. - №11.стр.31-43., Мэнкью Н.Г.Принципы экономики.– СПб.: Питер Ком,1999., - с.356., Петти У. Трактат о налогах и сборах. Слово мудрым. Разное о деньгах. – М.: Ось-89, 1997., - с.346., Рикардо Д. Начала политической экономии и налоговогообложения. Сочинения, том I. Государственное издательство политической литературы., Белостоцкая В.А. Системный подход к измерению налоговой нагрузки//–М.: Финансы., 2003. – №3.-с.36-37., Кирова Е.А. Методология определения налоговой нагрузки на хозяйствующие субъекты//–М.: Финансы. 1998., №9.–с.30-32., Титов В.В. Влияние налоговой системы на эффективность

Soliq yuki va uni tahlil qilish masalasi mahalliy olimlarining ilmiy tadqiqotlarida ham keng o‘rin olib kelmoqda. Bular jumlasiga, T.Malikov, S.R.Adizov, Q.Yaxyoyev, O.Z.Gaybullayev, Sh.Turayev, K.Hotamov, B.Sanaqulova, Q.T.Bozorov, B.Isroilov, S.Sultanova, I.Niyazmetov, Z.Qurbonov, F.Isayev, Q.Tuxsanov, U.Normurzayev, U.Rajabov va shu kabi olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarini keltirish mumkin⁴. Ammo, milliy, hududiy hamda soliq to‘lovchi korxonalar doirasida soliq yukini optimalligini ta‘minlash, bu boradagi davlatning soliq siyosatini asosiy yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari juda kam amalga oshirilganki, bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida ushbu masala bilan ilmiy tadqiqotlarga ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolinmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta‘minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta‘minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: O‘zbekistonda soliq yukini baholash va uni optimallashtirish jarayonlarini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

soliq yukining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;
soliq yuki darajasiga ta‘sir etuvchi omillarni yoritib berish;

деятельности предприятия. //—М.: Финансы. 2006.-№2.-с.42-46., Черник Д.Г., Налоги. 4ое издание – М.: Финансы и статистика, 2000., - с. 430.

⁴ Маликов Т. “Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари”. –Т.: Академия нашри. 2002 й., Адизов Санжар Рашидович. Солиқ юкининг макроиқтисодий кўрсаткичларга таъсири моделлаштириш. 08.00.06-Эконометрика ва статистика ихтисослиги иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферати. Тошкент-2018. 25 б., Яхёев Қ.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. –Т.: Фан ва технологиялар маркази, 2003 й 19-б., Гайбуллаев Орзумрад Зиядуллаевич. Солиқ юкини баҳолашни такомиллаштириш. 08.00.07-молия, пул муомаласи ва кредит ихтисослиги бўйича иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент-2004. 24.б., Тураев Ш.Ш. “Иқтисодиётда солиқ юкини оптималлаштириш йўналишлари”. и.ф.д. учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент: 2021 й., Хотамов К.Р. “Билвосита солиқлар ҳисоби, таҳлили ва аудитини такомиллаштириш” диссертация и.ф.д., –Т.: 2016 й.136 б., Санақуллова Б.Р. “Кичик тадбиркорлик субъектларини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш орқали иқтисодий ўсишини таъминлаш” –Т.: 2016 й. -120 б., Санақуллова Б.Р., Бозоров Қ.Т., Адизов С.Р. Солиқ юки таҳлили. Ўқув кўланма. Тошкент. Иқтисодиёт нашриёти. 2017 й. -323 б., Юлдашев О.Т. Ўзбекистон Республикасида солиқ имтиёзларини такомиллаштириш йўналишлари и.ф.н. диссертацияси, –Т.: 2011 й. 22 бет., Қурбонов З.Н. “Солиқ ҳисоби ва аудитининг назарий ва методологик асослари” дис. И.ф.д. Тошкент: БМА, 2008. -272 б., Исроилов Б.И. “Солиқларнинг молиявий ҳисоби ва таҳлилининг методологик асослари”. Диссертация и.ф.д., Самарқанд-2006., Исаев Ф.И. Солиқ таҳлили: назария ва амалиёт. Монография. –Т.: “ИQTISODIYOT”. 2022 йил. -150 бет., Нормурзаев У.Х. Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Дисс. автореферати. –Т., 2022. - 22 б. Раджапов У. “Ўзбекистон иқтисодиётини эркинлаштириш шароитида солиқ тизимини такомиллаштириш” и.ф.н. илмий даражаси олиш учун ёзилган дисс. Автореферати. –Т.: 2006. 9-б.

soliq yukiga oid ilmiy tadqiqotlarni ilmiy tahlil qilish va bu bo'yicha mualliflik yondashuvni shakllantirish;

respublikamiz soliq tizimida soliq yukining taqsimlanish jarayonlarini tahlil qilish;

soliq siyosatini baholash uslubiyotini tahlil qilish;

ko'p omilli ekonometrik tahlillar asosida kelgusi besh yilga mo'ljallangan soliq yuki darajasining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

soliq yukini baholashning amaldagi uslubiyotning takomillashtirilgan variantini ishlab chiqish;

O'zbekiston soliq tizimi va siyosatida soliq yukini yanada optimallashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq yukini baholash va optimal taqsimlashga oid faoliyat olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini uslubiy jihatdan baholash va uni yanada optimallashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, reyting baholash, statistik guruhlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

benzin va dizel yoqilg'isini oxirgi iste'molchilarga sotadigan shaxslar uchun aksiz solig'ini bekor qilib, uni to'lash majburiyatini neft mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar zimmasiga yuklash orqali mazkur soliq turini byudjet daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan unifikatsiya qilish taklifi asoslangan;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan miqdorda yoki jismoniy shaxslardan deklaratsiya asosida olinadigan daromad solig'ini bekor qilish hamda mazkur soliq o'rniga yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aylanma solig'i yoki QQS va foyda soliqlarini to'lashni tanlash imkonini berish orqali soliq yukini optimallashtirish taklifi asoslangan;

yuridik shaxslarning asosiy infratuzilma hamda ko'chmas mulk obyektlari uchun mol-mulk solig'i stavkasini yillik inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda 0,5% dan 0,8% gacha oshirish orqali indeksatsiya qilish asosida asosiy stavka darajasiga yetkazish va teng soliqqa tortish shartlarini yaratish taklifi asoslangan;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan ijtimoiy reestriga kiritilgan fuqarolar ishga qabul qilinib, ularga kamida bir yil davomida har oy mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan hajmda ish haqi to'lab, bandligini ta'minlagan va ular jami ishchilar sonining kamida 20 foizini tashkil etgan holatda mol-mulk solig'i va yer solig'idan imtiyoz berish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

soliq yuki tushunchasiga oid mualliflik ta'rifi shakllantirilgan;

soliq yukiga ta'sir etuvchi makro va mikro omillar ko'rsatib berilgan va ularning ta'sir darajasi ilmiy jihatdan asoslangan;

ko'p omilli ekonometrik tahlillar asosida kelgusi besh yilga mo'ljallangan soliq yuki darajasining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqilgan;

davlat soliq siyosatida soliq stavkalari va soliq imtiyozlarini o‘zaro uyg‘unlikda ko‘rish chiqish maqsadga muvofiqligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Yangi O‘zbekiston sharoitida davlatning soliq yuki bilan bog‘liq byudjet-soliq siyosatida uni uslubiy jihatdan adolatli baholash va taqsimlash asosida optimallashtirishga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston soliq tizimida soliq ma‘murchiligini yanada soddalashtirish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishning samarali usullarini qo‘llash orqali samaradorlikka erishishi, shuningdek, bu boradagi davlat siyosatini ishlab chiqishda hamda o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda, shuningdek, mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Soliq yukini baholash va uni yanada optimallashtirish bilan bog‘liq ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

benzin va dizel yoqilg‘isini oxirgi iste‘molchilarga sotadigan shaxslar uchun aksiz solig‘ini bekor qilib, uni to‘lash majburiyatini neft mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar zimmasiga yuklash orqali mazkur soliq turini budjet daromadlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasdan unifikatsiya qilish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O‘RQ-812-son “Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 30-dekabrda O‘RQ-813-son “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonunlarida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 3-noyabrda 15-109925-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aksiz solig‘i turlarini byudjet daromadlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasdan unifikatsiya qilish, davlat byudjetiga qo‘shimcha 63,0 mlrd.so‘mlik mablag‘ jalb etilishi va soliq to‘lovchilar zimmasiga soliq yukining keskin oshishiga olib kelmasligini ta‘minlash imkonini bergan;

yuridik shaxslarning asosiy infratuzilma hamda ko‘chmas mulk obyektlari uchun mol-mulk solig‘i stavkasini yillik inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda 0,5% dan 0,8% gacha oshirish orqali indeksatsiya qilish asosida asosiy stavka darajasiga yetkazish va teng soliqqa tortish shartlarini yaratish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O‘RQ-812-son “Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 30-dekabrda O‘RQ-813-son “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi

qonunlarida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 3-noyabrdagi 15-109925-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida davlat budjetiga qo'shimcha 149,7 mlrd.so'mlik mablag' jalb etilishi va soliq to'lovchilar zimmasiga tushadigan soliq yuki keskin oshishining oldini olish imkoni yaratilgan;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan miqdorda yoki jismoniy shaxslardan deklaratsiya asosida olinadigan daromad solig'ini bekor qilish hamda mazkur soliq o'rniga yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aylanma solig'i yoki QQS va foyda soliqlarini to'lashni tanlash imkonini berish orqali soliq yukini optimallashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-son "Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi hamda 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-813-son "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonunlarida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 3-noyabrdagi 15-109925-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq stavkalarini optimallashtirish hisobiga soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini 342 mlrd.so'mga kamaytirish imkonini bergan;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan ijtimoiy reestriga kiritilgan fuqarolar ishga qabul qilinib, ularga kamida bir yil davomida har oy mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan hajmda ish haqi to'lab, bandligini ta'minlagan va ular jami ishchilar sonining kamida 20 foizini tashkil etgan holatda mol-mulk solig'i va yer solig'idan imtiyoz berish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-93-son "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 19-iyundagi 18/1-74550-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tadbirkorlik subyektlariga tabaqalashgan miqdorlarda imtiyoz va preferensiyalar belgilash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.


Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Solliq yukining iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida solliq munosabatlari tizimida solliq yukining ilmiy asoslari hamda solliq yukining ilmiy tadqiqotlardagi nazariy talqini shuningdek, mazkur mavzu doirasidagi ilmiy-nazariy qarashlarning ilmiy tahlili amalga oshirilgan.



1-rasm. Solliq yukining taqsimot munosabatlari bilan korrelyatsiyasi⁵


Solliq yuki birinchidan, jamiyat aʼzolari zimmasiga yuklatilgan moliyaviy majburiyatni anglatadi, ikkinchidan, solliq kategoriyasining oʻzi mohiyatan ham solliq yukini ifodalaydi, uchinchidan, muayan davr mobaynida jamiyatda yaratilgan qiymatning jamiyat aʼzolari oʻrtasida qayta taqsimlanishini tavsiflaydi, toʻrtinchidan, iqtisodiy munosabatlarda yangidan yaratilgan qiymatning ijtimoiylashuvini taʼminlaydi, beshinchidan, solliq yuki aslida jamiyatdagi ishlab chiqarish subyektlari va mulk hamda daromadga ega boʻlgan jismoniy shaxslarning jamiyatga davlat tomonidan koʻrsatilayotgan ijtimoiy va moliyaviy xizmatlarini moliyalashtirishdagi ulushini anglatadi, oltinchidan esa, davlatning ijtimoiy va moliyaviy xizmatlari kim qancha foydalangan boʻlsa, ana shu miqdorda (hajmda) moliyaviy majburiyat olmasligi yoki teskari holatda boʻlishini koʻrsatib beradi va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy qayta taqsimlanishlar mavjudligini koʻrsatadi.

⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

Ishlab chiqarish sohasidan qayta taqsimlangan boyliklarni esa ushbu markazlashgan fondlarga jalb qilishning birdan-bir usullaridan biri sifatida majburiy to'lovlar, ya'ni soliqlarni joriy etishni taqozo etadi. Bu munosabatlar aslida davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilar zimmasiga moliyaviy yukni yuklashni bildiradi, majburiy to'lovlarni joriy etish orqali esa, soliq yukini keltirib chiqaradi.

Chunki, soliq yukining o'zi davlat tomonidan ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalar, xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar va daromad, mulk va yerga egalik qiluvchi jismoniy shaxslarga nisbatan e'lon qilinadigan moliyaviy majburiyatlarni ham ifodalaydi. Har qanday iqtisodiy-ijtimoiy jarayonning kelib chiqish holati mavjudki, soliq yukining iqtisodiy va sotsial munosabat sifatida yuzaga kelishini taqsimot munosabatlariga borib taqaladi.

Soliq yuki taqsimot munosabatlari bilan korrelyatsiyasi to'g'ridan to'g'ri va bilvosita tarzida mavjud bo'ladi. To'g'ridan to'g'ri tarzida esa, yalpi ichki mahsulotning bir qismini davlatning moliyaviy mablag'larini shakllantirish maqsadida qayta taqsimlanish jarayoni soliq yukini yuzaga keltiradi va uning miqdori davlatning soliq siyosatidan kelib chiqib aniqlanadi. Bilvosita bog'liqligi esa, soliq yukining o'zi ichida ijtimoiy xizmatlari iste'mol etuvchi sohaga yo'naltirilgan mablag'lardan mehnat haqi tarzidagi daromadlarga ham soliq yuki sifatida qaraladi.



2-rasm. Soliq yukining funksiyalari⁶


Soliq yukining funksiyalari soliq yukining ichki va tashqi xususiyatlarini ham o'zida ifoda etadi. Haqiqatdan ham soliq yuki mohiyati jihatdan milliy daromadni qayta taqsimlash, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalar o'rtasidagi aloqalarni bog'lash, davlatning iqtisodiy siyosatining samaradorligini baholash hamda ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini baholash kabi funksiyalarni bajaradiki, uning bu funksiyalari doimiy xarakterga ega bo'ladi, ular doimo takrorlanib turadi va ular bir tizim sifatida soliq yukining muhim xususiyatlarini ifodalab turadi.

Soliq yuki ham ekvivalentsizlikka egadir, ya'ni, kinga qancha soliq yuki belgilansa, uning evaziga shuncha miqdorda davlatning ijtimoiy manfaatlar olmasligi yoki umuman soliq yuki tushmagan individlar davlatning aksincha, ko'proq ijtimoiy xizmatlarni iste'mol qilishi mumkin va shu orqali soliq yukining ijtimoiy xizmatlar

⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

bilan to'liq ta'minlanmasligi ro'y berib turadi va bu jamiyatni iqtisodiy jihatdan boshqarishda muhim dastak ham hisoblanadi.

Soliq yuki iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki soliqlar davlat daromadlarining asosiy manbai bo'lib, turli iqtisodiy oqibatlarga olib keladi.



3-rasm. Soliq yukining iqtisodiyotga ta'siri⁷


Uning ta'siri yuqoridagi 3-rasmda keltirilgan, asosan, milliy (yalpi) daromadni optimal taqsimlash orqali ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qilib moliyaviy resurslarning harakatini muvofiqlashtirib borsa, investitsiyalarning harakatlanishiga ta'sir qilib boradi, korxonalar moliyaviy resurslariga, mahsulotlar tannarxiga, tashqi savdo hajmiga va mahsulot (xizmat)lar iste'moliga ta'sir qilib boradi.

Soliq yuki davlatning moliyaviy siyosatining natijasi hisoblanib, soliq yukining miqdori va uning qamrovi davlatning moliyaviy siyosatidan kelib chiqadi. Bunda davlat tomonidan belgilanadigan majburiy to'lovlar ham muhim rol o'ynaydi. Shundan kelib chiqib, davlat o'zining moliyaviy funksiyalaridan kelib chiqib turli xil moliyaviy pul fondlarini tashkil qilib, ularni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash maqsadida soliq yukiga oid siyosatini shakllantirib boradi.

Soliq yukiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlili asosida bir qator ilmiy xulosalar qilish mumkin: birinchidan, soliq yuki doimo davlatning soliq siyosati bilan uzviy holda tadqiq qilib kelinmoqda, ikkinchidan, soliq yukining o'zi soliq tizimi sifatida o'rganilgan, uchinchidan, soliq yukining iqtisodiyotning turli jihatlari ya'ni, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari darajasiga, narxga, iste'mol indeksi va uning darajasiga, ish haqiga, raqobat muhitiga, investitsiyaga, kapital harakatiga va shu kabilarga bog'liq holda o'rganilgan, to'rtinchidan, soliq yukini aniqlash usullari va uning taqsimlanishi tarmoqlar bo'yicha xususiyatlariga bag'ishlanib kelinmoqda.

⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

Ilmiy tadqiqot uslubiyotiga asoslangan holda bizga qadar soliq yuki muammosiga bag‘ishlangan amalga oshirilgan tadqiqotlar qatori biz ham soliq yukining mohiyatiga oid mualliflik yondashuvimizni keltirishni lozim topdik. Shundan kelib chiqqan holda, *soliq yuki bu* – iqtisodiy subyektlarga tegishli bo‘lgan daromad, foyda, mol-mulk, yer va boshqa soliqqa tortiladigan obyektlar doirasida jamiyat manfaatlari uchun ularning zimmasiga yuklatiladigan moliyaviy majburiyatlar tushuniladi. Chunki, mohiyatiga ko‘ra, soliq yuki aslida moliyaviy majburiyatdir.




4-rasm. Soliq yuki va uning davlat moliyaviy siyosati bilan bog‘liqligi⁸

Dissertatsiyaning “**Soliq yukini baholashning uslubiy masalalari va uning amaldagi holatini tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida soliq yukini baholash uslubiyoti va uni takomillashtirish masalalari yoritilgan, soliq yukiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan, jumladan, soliq yukiga ta’sir etuvchi moliyaviy-soliq instrumentlari ko‘rsatib berilgan hamda tarmoqlar va korxonalarda soliq yukini baholash mexanizmlari tahlil qilingan holda ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Garchi soliq yuki darajasi vakolatli organlar tomonidan soliqlarning adolatlilik tamoyili asosida belgilansada, milliy iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi ham uning miqdoriga ta’sir qiluvchi muhim omil sifatida doimo mavjud bo‘ladi. Bunda davlatning moliyaviy-soliq instrumentlaridan foydalanish darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi.

⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.



5-rasm. Soliq yuki darajasiga ta'sir etuvchi omillar⁹

Tadqiqot doirasida soliq yukini aniqlash va uni baholash bilan bog'liq bizgacha bo'lgan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib bir qator ilmiy xulosalar qilishga imkon tug'ildi:

birinchidan, soliq yukini aniqlashdagi dastlabki yondashuvlar asosan klassik iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan bo'lib, bunda soliq yukini aniqlash

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

davlatning soliq siyosatining o'zagini, ya'ni soliqlarni joriy qilish va ularning miqdorini belgilash bilan bir qatorda ifodalangan;

ikkinchidan, ilmiy tadqiqotlarda soliq yukini makro, mezo, mikro darajada aniqlash bilan bog'liq uslubiyotlarga keng e'tibor berila boshlandi, bunda o'ziga xos uslubiyotlar ishlab chiqila boshlandi;

uchinchidan, soliq yukini soliq turlari kesimida aniqlash orqali uning makro va mikro darajadagi holati bilan bog'liq aniqlash bilan bog'liq uslubiyotlar ham anchayin rivojlandi;

to'rtinchidan, soliq yukining o'zini ichki mohiyatiga ko'ra mutlaq va nisbiy shaklda aniqlash bilan bog'liq ilmiy uslubiyotlar paydo bo'ldi va keyingi tadqiqotlarda bunga kengroq e'tibor berila boshlandi.

Soliq yukiga bevosita ta'sir etuvchi moliyaviy-soliq instrumentlari sifatida soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq preferensiyalari, soliq obyekt va soliq bazasi kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarning ta'sirini belgilash esa ikki xil tartibda amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchi uchala omillar: soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq preferensiyalari davlatning moliyaviy-soliq siyosati orqali davlat tomonidan belgilanadi.

1-jadval

2022-yilda avvalgi (2021-yil)ga nisbatan O'zbekistonda davlat pul fondlariga nisbatan soliq yukining ta'sir etuvchi omillariga to'g'ri keluvchi taqsimlanish tahlili (mlrd. so'm)¹⁰

Soliq tushumi (soliq yuki) miqdoriga ta'sir etuvchi omillar	Summasi (ko'payish+kamayish -)
Soliq siyosatidagi o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish va soliq ma'murchiligi bilan bog'liq bo'lmagan omillar	8 847,6
Iqtisodiy o'sish hisobiga	8 903,3
Soliq qonunchiligi o'zgarishi va ish haqini oshishi	5 280,2
Soliq stavkalarini (+indeksatsiya) o'zgarishi	-13 154,1
Imtiyozlar bekor bo'lishi	2 735,0
Yangi imtiyozlar berilishi	-2 074,5
Yangi ro'yxatdan o'tgan subyektlar	735,1
Soliq ma'murchiligi bilan bog'liq bo'lmagan tushumlar (bir martalik to'lovlar)	6 422,5
Soliq ma'murchiligi bilan bog'liq omillar	11 570,3
EXF to'g'ri rasmiylashtirish, qayta ishlash va hisobotlarga tuzatishlar kiritish	3 320,2
Qo'shimcha soliq obyektlari va yer maydonlarni aniqlash	688,7
Korxonalarining yil boshidagi soliq qarzlarni undirish	2 687,7
Soliq tekshiruvi natijasi	1 664,8
Yashirilgan ish o'rinlari va FOTni legallashtirish	1 076,6
Onlayn NKM, Cashback, joriy etish va to'lov intizomiga rioya etilishi	2 132,3
Jami	20 417,8

Ushbu keltirilgan javdal ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021-yilga nisbatan 2022-yildagi soliq tushumlarining soliq yukining ta'sir etuvchi omillarga to'g'ri keluvchi taqsimlanishi tahlili shuni ko'rsatmoqdagi ushbu ikki guruhga kiruvchi

¹⁰ Davlat soliq statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

omillar umumiy tarzda 2022-yilda 2021-yilga nisbatan taqqoslaganda byudjetga 20 417,8 mlrd. soʻmga teng ravishda soliq tushumlari oshgan, bu tushumlarni amaldagi soliq qonunchiligi boʻyicha soliq toʻlovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlari doirasida qaraydigan boʻlsak, aslida soliq yuki bu summaga teng boʻlmaydi, sababi omillarning ikkinchi guruhi-soliq maʼmurchiligining yaxshilanishi hisobiga qoʻshimcha tushgan (11 570,3 mlrd. soʻm) soliq tushumi tub mohiyati boʻyicha sof soliq yukini ifodalamaydi, chunki, ularning ichidagi avvalgi yillarda soliq toʻlovchilar zimmasidagi qonuniy soliq yukining bir qismi sifatida soliq qarzdorligi boʻyicha tushumlar undirilishi aslida 2022-yilgi soliq yukiga qoʻshish nazariy va mantiqiy jihatdan toʻgʻri boʻlmaydi.

2-jadval

Oʻzbekiston iqtisodiyotida iqtisodiy indikatorlarning soliq tushumlari (yuki)ga taʼsir tahlili¹¹


Koʻrsatkichlar	Oʻlchov birligi	2021-yil	2022-yil	Oʻsish		Soliq yukiga taʼsiri
				%da	summada	
Yirik soliq toʻlovchilar boʻyicha jami tushum	trln.soʻm	82,2	88,3	107%	6,1	+ 6,1 trln.soʻm
Jahon bozorida qimmatli metal narxining oʻzgarishi hisobiga	trln.soʻm	38,2	28,8	75%	-9,4	- 9,4 trln.soʻm
Oltin	doll./tr.unts.	1 785 \$	1 650 \$	92%	-135 \$	- 7,9 trln.soʻm
Kumush	doll./tr.unts.	26,1 \$	19,5 \$	75%	-6,6 \$	- 0,3 trln.soʻm
Mis	doll./tn	8735,3 \$	7806,5 \$	89%	-929,8 \$	- 1,2 trln.soʻm
Tabiiy gaz eksporti narxi va hajmini pasayishi hisobiga	trln.soʻm	4,5	10,9	243%	6,4	+ 6,4 trln.soʻm
Tabiiy gaz eksporti	doll./ming m ³	126 \$	126 \$	100%	0 \$	+ 6,4 trln.soʻm
Joriy yilda hududlardan oʻtgan korxonalar hisobiga	trln.soʻm	0,0	2,3	100%	2,3	+ 2,3 trln.soʻm
Boshqa korxonalar hisobidan	trln.soʻm	39,5	46,2	117%	6,6	+ 6,6 trln.soʻm

Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, soliq yuki darajasiga taʼsir etuvchi omillar orasida makroiqtisodiy omil sifatida narx omili muhim sanaladi. Narx omili bir tomondan ichki mahsulotlar orqali tannarx orqali qoʻshimcha soliq yuki sifatida soliq toʻlovchilar zimmasiga oʻtirsak, boshqa tomondan material va xom ashyolarni import qilishda ularning narxining oshishi oqibatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxiga taʼsir etishi orqali ham soliq toʻlovchining soliq yukining oshishiga taʼsir qiladi. Keltirilayotgan 2-jadval maʼlumotlarini tahlil qiladigan boʻlsak, jahon bozorida qimmatli metal narxining oʻzgarishi hisobiga - 9,4 trln. soʻmlik soliq yuki kamayishiga olib kelgan boʻlsa (bunda oltin 7,9 trln. soʻm, kumush 0,3 trln. soʻm, mis 1,2 trln. soʻm) bu davlat byudjetiga kelib tushishi mumkin boʻlgan tashqi

¹¹ Davlat soliq statistikasi qoʻmitasi maʼlumotlari asosida tuzilgan.

bozorlar orqali moliyaviy mablag'ning yo'qotilishi oqibatida uning o'rni ichki soliq to'lovchilar zimmasiga soliq yukining qaysidir soliqlar bo'yicha oshishini anglatadi.

Soliq to'lovchilar zimmasiga soliq yukini belgilovchi birinchi omil bu ular to'lashi lozim bo'lgan soliq turlari soni bo'lsa, ikkinchi omil belgilangan soliq turlari bo'yicha soliq obyektlarining hajmidir. Uchinchi omil esa, qonunchilik bilan soliq obyektining soliqqa tortilish darajasi, ya'ni, soliq obyektining qanchalik qismi yoki qaysi soliq obyektlarining soliqqa tortilishidir, aslida bu soliq bazasini tashkil qiladi, to'rtinchisi omil sifatida soliq to'lovchining mahsulot (xizmat ko'rsatish) ishlab chiqarish jarayonidagi qiladigan xarajatlari va ularning unumlilikini keltirish mumkin, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotilishi jarayoni va uning hajmini beshinchi omil sifatida keltirish mumkin.



6-rasm. Soliq to'lovchining soliq yukini belgilovchi birlamchi omillar¹²

Bundan tashqari ta'kidlab o'tganimizdek, inflyatsiya darajasi ham mahsulot tannarxiga ta'sir etishi orqali soliq yuki darajasiga ham ta'sir qiladi. Bu qayd etilganlar korxonalarda soliq yukining darajasiga bevosita ijobiy (kamayishiga) yoki salbiy (oshishiga) ta'sir qiladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, yana shunday omillar mavjudki, ular soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatining natijasida yuzaga keladigan va soliq yukining darajasiga ta'sir qiladigan holatlar (ko'rsatkichlar) ham mavjudki, ular jumlasiga, masalan, soliq qarzdorligi, soliqlarni yashirilganligi va boshqa faoliyat uchun qo'llanilgan moliyaviy jarimalar, ishlab chiqarish jarayonida material va xom-ashyo materiallaridan xo'jasizlarcha foydalanish, ortiqcha energiya sarf xarajatlari hamda fors-major holatlarni keltirish mumkinki, ular soliq to'lovchining soliq yuki darajasini oshishiga ta'sir qiladi.

Avvalgi bandlarimizda soliq yuki darajasiga ta'sir etuvchi omillarning ta'sirchanlik holati bo'yicha nazariy qarashlarimizning ilmiy isboti sifatida keltirilayotgan ikkita eng yirik soliq to'lovchilar sirasiga kiruvchi sanoat tarmog'i

¹² Muallif tomonidan tuzilgan.

misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu ikkala tarmoqda soliq yuki darajasi tahlil qilinayotgan yillar: 2019-2022-yillar kesimida turlicha bo‘lgan. Jumladan, “O‘zbekneftgaz” tarmog‘ida soliq yuki darajasi 2019-yilda o‘rtacha 37,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda esa keskin kamayganligini ya’ni, 14,3 foizni tashkil etganligini, keyingi 2021-2022-yillarda mos holda 22,2 va 32,4 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

3-jadval

O‘zbekistondagi yirik donor soliq to‘lovchi tarmoqlarda soliq yuki darajasi va unga moliyaviy omillarning ta’siri¹³ (mlrd. so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
“O‘zbekneftgaz” tarmog‘i				
Jami daromadi	10 095	15 985	14 696	13 321
Jami xarajati	9 614	11 466	10 865	11 287
Sof foydasi (-zarari)	461	3 293	3 349	1 605
Ish haqi fondi	729	902	983	1 081
Ishchilar soni (nafar)	23 522	18 518	16 912	16 912
Xarajatga nisbatan rentabellik (%)	5	29	31	14
Byudjetga to‘langan soliqlar	3 741	2 289	3 265	4 321
Soliq yuki: (%)				
Daromadga nisbatan	37,0	14,3	22,2	32,4
Xarajatga nisbatan (%)	38,9	19,9	30,0	38,2
“O‘ztransgaz” tarmog‘i				
Jami daromadi	22 293,6	26 841,0	22 877,8	25 075,6
Jami xarajati	25 416,1	24 528,9	23 638,7	22 974,8
Sof foydasi (-zarari)	-2 048,6	-3 683,9	-2 515,8	-2 100,0
Ish haqi fondi	22,7	84,0	417,7	459,5
Ishchilar soni (nafar)	428,0	6 430,0	6 309,0	98,1
Xarajatga nisbatan rentabellik (%)	-8,1	-15,0	-10,6	-9,1
Byudjetga to‘langan soliqlar	2 791,8	1 369,0	3 241,3	2 818,7
Soliq yuki: (%)				
Daromadga nisbatan	12,5	5,1	14,1	11,5
Xarajatga nisbatan (%)	10,9	5,6	13,7	12,3

Bunga asosiy sabab 2020-yildagi soliq yukining avvalgiga nisbatan kamayishi pandemiya sharoitidagi iqtisodiy omillar bo‘lsa, keyingi yillarda soliq to‘lovlari oshgan sharoitda jami olingan daromadlarning kamayishi sodir bo‘lgan. Bu tarmoqdagi soliq yukini agar xarajatlarga nisbatan tahlil qilinganda ham bunda ham xuddi daromadga nisbatan soliq yukidagi iqtisodiy holat va unga ta’sir etuvchi omillar sabablarida o‘xshashlikni ko‘rish mumkin, uning darajasi daromadga nisbatan darajasi yillar kesimi anchayin yuqoriligini ko‘rish mumkin, chunki, xarajatlarning o‘sish darajasi ham yillar kesimida tez sur’atlarda oshib borgan.

Korxonalar zimmasidagi soliq yukini tahlil qilishda albatta ularga davlat soliq siyosati orqali berilgan soliq imtiyozlari darajasi bilan bog‘liq holda tahlil qilish lozim bo‘ladi.

¹³ Tahlil qilinayotgan korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida tuzilgan.

Chunki, birinchidan, soliq imtiyozlari garchi soliqlarning rag‘batlantirish xususiyatini ifodalasada, soliq to‘lovchilarning iqtisodiy manfaatlariga mos kelganligi sababli unga intilish doimo yuqori bo‘ladi va bu soliqlarning adolatlilik tamoyiliga zidlikni keltirib chiqarali, ikkinchidan, soliq imtiyozlariga teng summaga byudjetda moliyaviy yo‘qotish hisobiga qaysidir ijtimoiy xizmatlar moliyalashtirilmay qolinishiga olib keladi, uchinchidan, bir tarmoqqa yoki tanlangan soliq to‘lovchilar guruhiga soliq imtiyozlar berilishi, boshqa bir tarmoq yoki soliq to‘lovchi zimmasidagi soliq yukining oshishiga olib kelishi mumkin, to‘rtinchidan, soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish muammosi juda mavhum bo‘lib, agar, imtiyozlar samarali foydalanilgan holda soliq yukining adolatli taqsimlanganligini ifodalaydi, aksincha holatda esa, ikki tomomlana salbiy ta’sirga: ya’ni, davlat byudjetiga hamda boshqa bir soliq to‘lovchining manfaatlariga zid holat yuzaga keladi, shu bilan birgalikda esa, qaysidir soliq to‘lovchida boqimandalikni keltirib chiqaradi, beshinchidan, soliq imtiyozlari aksariyat holatlarda soliq to‘lovchilarda soliqdan qochish jarayonlarini kelib chiqishiga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, bu holatni esa, soliq imtiyozlari va soliq yuki o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsion bog‘liqlikni e’tiborga olib soliq siyosatini yuritish va shu orqali soliq yukini optimal taqsimlashni ta’minlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4-jadval

Soliq to‘lovchilar kesimida soliq yuki darajasiga soliq imtiyozlarining ta’siri tahlili¹⁴ (mlrd. so‘m)

Korxonalar	Imtiyozlar				To‘langan soliqlar	
	2020	2021	2022	2020	2021	2022
TIF “O‘zmilliy bank” AJ	396, 4	350, 6	786, 2	192, 0	193, 2	348, 3
“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ	451, 6	797, 2	631, 3	13012,5	9 597,2	12 009,7
“Agrobank” ATB	221, 4	357, 6	529, 0	75, 3	165, 0	226, 0
“UZ-KOR GAS CHEMICAL” MCHJ QK	582, 9	556, 4	407, 9	317, 8	532, 6	586, 5
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	67, 5	15, 0	292, 6	9, 3	14, 6	97, 8
“Navoiyazot” AJ	1, 7	3, 1	73, 3	38, 4	168, 4	399, 0
“O‘zneftgaz” AJ	10, 599	55, 476	24, 257	2 289,0	3 265,0	4 321,0
“Kafolat sug‘urta kompaniyasi” AJ	2, 2	3, 4	15, 9	2, 8	1, 9	6, 5
“Qurilish universal kompakt servis” MCHJ	36, 2	10, 8	12, 9	7, 8	18, 3	27, 2
“Maksam-Chirchiq” AJ QK	124, 4	131, 5	165, 3	124, 4	131, 5	165, 3


Dissertatsiyaning “O‘zbekiston soliq tizimida soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq yukini optimallashtirish masalalari” deb nomlangan uchinchi bobida soliq yukiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili keltirilgan, soliq yukini optmallashtirish, taqsimlash bilan bog‘liq mavjud ilmiy-amaliy muammolarning mazmuni

¹⁴ Tahlil qilinayotgan “Olmaliq KMK” AJning moliyaviy ko‘rsatkichlari va Dalvat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

keltirilgan hamda mavjud jarayonni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan va ularning mohiyati keltirilgan.

Soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini optimal taqsimlash soliq siyosatining eng murakkab va nozik jihatlaridan biri bo'lib, bunda soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilini qaror toptirish asosiy muammo hisoblanadi.

Optimal soliq yukini belgilashda davlat ikkita muhim masalaning yechimini o'zaro uyg'un qarash lozim bo'ladi deb hisoblaymiz. Bular bir tomondan davlatning funksiyalarini optimal tarzda bajarishi uchun kerak bo'ladigan moliyaviy mablag'larni jalb qilish imkoniyatini beruvchi soliqqa oid siyosatni ishlab chiqish va yuritish, boshqa tomondan soliq to'lovchilarni adolatli soliqqa tortish asnosida ularning iqtisodiy faoliyatini cheklab qo'ymaslikni ta'minlaydigan mo'tadil soliq siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi. Respublikamiz soliq tizimida optimal soliq yukini belgilash (o'rnatish) va ta'minlash borasida ayrim ilmiy-amaliy xarakterga ega bo'lgan muammolar mavjudligi aniqlandi. Ularni vizual shaklda quyidagicha izohlash mumkin (7-rasm).




7-rasm. Soliq tizimida optimal soliq yukini belgilash (o'rnatish) va ta'minlash muammolari¹⁵

Bugungi kunda respublikamiz soliq tizimida soliq yukiga ta'sir etuvchi omillarning yetarlicha baholanmasligi va uning metodologiyasining takomillashmaganligi ham bu boradagi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Soliq yukini optimal holatini tahlil qilishda real ko'rsatkichlarga asoslangan metodologiya to'laqonli samarali deb aytishga asos mavjud emas. Ilmiy tadqiqotlarda soliq yukini aniqlashni makro va mikro darajada amalga oshirish lozimligini ilmiy asoslashga harakat qilingan bo'lsada (masalan, Sh.Turayev,

¹⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

I.Niyazmetov) ammo, soliq yukini tahlil qilish ko‘rsatkichlaridan uslubiy jihatdan samarali foydalanish yo‘llari hali ko‘rsatib berilmagan.



8-rasm. Soliq yukini optimal tahlil qilish uslubiyoti¹⁶

Biz tomonimizdan keltirilayotgan ushbu uslubiyot makro va mikro darajada soliq yukini tahlil qilishda muhim uslubiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu uslubiyotning asosiy mohiyati shundan iboratki, bunda soliq yuki tahlili makro va mikro darajada amalga oshirilib, uning xulosalari o‘zaro integratsiyalashgan holda shakllantiriladi, soliq yukiga ta’sir etuvchi omillarni mazmunan va shaklan bog‘liqlikda ikki guruhga ajratgan (soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, iqtisodiy o‘shish va soliq ma‘murchiligi bilan bog‘liq bo‘lmagan omillar va soliq ma‘murchiligi bilan bog‘liq omillar)ning ta’siri tahlil qilingan holda ilmiy xulosalar olishga xizmat qiladi, shuningdek, uslubiyotga ko‘ra, tahlil jarayonida qaysi tadqiqot (tahlil) usullaridan foydalanish lozimligi hamda xulosalar chiqarishning turlari ko‘rsatib berilgan.

¹⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Umumiy qilib aytganda soliq yukini optimal tahlil qilish uslubiyoti soliq tizimida makro va mikro darajada soliq yukini optimallashtirishga qaratilgan davlatning soliq siyosatida tegishli qarorlar qabul qilish va ilmiy xulosalar tayyorlashda metodologik asos sifatida soliq yukini optimallashtirishning ilmiy-amaliy yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo‘yicha toifalash tartibi to‘g‘risidagi NIZOM”da respublikamiz soliq tizimida soliq yukini aniqlashning ushbu uslubiyati keltirilgan bo‘lib, bu rasmiy uslubiyot hisoblanadi, ya’ni:

$$B = T \times 100\% / In \quad (1)$$

Bunda:

B - soliq yuki;

T - soliq davri davomida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar summasi;

In - soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan tushgan daromad.

Mazkur soliq yuki ko‘rsatkichi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha aniqlanishi belgilangan bo‘lib, Nizomda keltirilganidek, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha soliq yuki ko‘rsatkichi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytida har yili e‘lon qilinib borilishi lozim bo‘ladi. Mazkur rasmiy uslubiyotning mohiyatiga ko‘ra, birinchidan, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha aniqlashga xizmat qilsa, ikkinchidan, bunda soliq to‘lovchining soliq davrida to‘lashi lozim bo‘lgan soliqlar summasi e‘tiborga olinadi, ya’ni, haqiqiy to‘langan soliqlar emas, balki soliq davrida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar summasi asos qilib olinadi. Ammo, ta’kidlash lozimki, mazkur rasmiy uslubiyot mutlaq uslubiyot hisoblanadi, umumiy uslubiyot qoidasiga ko‘ra, mutlaq uslubiyot har doim ham qo‘yilgan masalaning mohiyatini to‘laroq ochib bera olmaydi, shu boisdan ham nisbiy uslubiyotdan foydalanish taqozo etiladi. Soliq yuki bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan ko‘pgina olimlar ta’kidlaganidek (bu haqda dissertatsiyamizning II bobida keltirib o‘tilgan), soliq yukini nisbiy tartibda ham aniqlash lozim bo‘ladi. Nisbiy soliq yukini aniqlash bo‘yicha ayrim mualliflar (masalan, M.Alimardanov, Sh.Turayev, I.Niyozmetov)ning yondashuvidan farqli ravishda biz soliq yukini aniqlashning milliy iqtisodiyot hamda soliq to‘lovchi miqyosidagi nisbiy soliq yukini aniqlash uslubiyotimizni ishlab chiqdik.

$$MI_{nsyu} = ST - (IQX - MJ - MMQ - Y - DBQSIQSQ) / MD * 100 \quad (2)$$

Bu yerda:

MI_{nsyu} - milliy iqtisodiyot doirasidagi nisbiy soliq yuki;

ST - soliq to‘lovlari;

IQX - davlat byudjetidan iqtisodiyotga qilingan xarajatlar;

MJ - moliyaviy jarimalar;

MMQ - musodara qilingan mol-mulklar qiymati;

Y - turli xil yig‘imlar;

DB - davlat bojlari;

SI - soliq imtiyozlari;

SQ - undirilmay qolingan soliq qarzdorligi;

MD - milliy daromad.

Milliy iqtisodiyot darajasida nisbiy soliq yukini aniqlashda biz tomonimizdan taklif etilayotgan uslubiyotning mohiyati shundaki, real soliq yukini aniqlash uchun nisbiy ko'rsatkichlar asosida aniqlash lozim bo'ladi. Albatta milliy iqtisodiyot doirasidagi umumiy va nisbiy soliq yukini aniqlash mamlakat miqyosidagi soliq yukini aniqlashga va bu boradagi davlatning soliq siyosatini ishlab chiqishga xizmat qiladi, ammo, soliq yuki kimning gardaniga tushadi? Albatta soliq to'lovchining zimmasida bo'ladi, shu boisdan fikrimizcha milliy iqtisodiyot darajasidagi soliq yukining nisbiy shaklini soliq to'lovchilar kesimida ham aniqlash uslubiy jihatdan to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz va uni quyidagicha aniqlashni taklif etamiz:

$$K_{nsyu} = (TS-SIM-TSQRTSS-TMJ) / JD * 100 \quad (3)$$

Bu yerda:

K_{nsyu} - korxonaning nisbiy soliq yuki;

TS - to'langan soliqlar;

SIM - samarasiz foydalanilgan soliq imtiyozi summasi;

TSQ - to'lanmagan soliq qarzdorlik summasi;


RTSS - bazis davriga nisbatan mahsulot realizatsiyasi hisobiga to'g'ri keladigan soliq tushumining oshishi;

TMJ - to'langan moliyaviy jarimalar;

JD - jami daromad.

Biz tomonimizdan korxonalar miqyosidagi nisbiy soliq yukini aniqlashning ushbu uslubiyatining mohiyati shundan iboratki, yuqorida keltirib o'tilgan milliy iqtisodiyot doirasidagi kabi nisbiy soliq yuki ko'rsatkichi korxonalar zimmasidagi real soliq yukini to'liq ifodalashga xizmat qiladi, chunki, korxonaning qancha soliq to'laganligini o'zi bilan aniqlash real holatni ko'rsata olmaydi. Masalan, samarasiz foydalanilgan soliq imtiyozi summasi, to'lanmagan soliq qarzdorlik summasi, to'langan moliyaviy jarimalar kabilar aslida soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatiga bog'liq bo'ladi va ularni soliq yukini aniqlashda to'langan soliq summasidan chegirib tashlagan holda aniqlash kerak bo'ladi. Soliq yukiga ta'sir etuvchi va soliq yukining iqtisodiyotga ta'siri omillarining o'zaro korrelyatsion bog'liqligi ikki xil tartibda yuzaga chiqadi. Bu iqtisodiy va ma'muriy shaklda mavjud bo'ladigan soliq yukining iqtisodiyotga ta'siri soliq stavkasi va imtiyozlarining o'zaro kesishmasi tarzida yuz beradi. Mazkur korrelyatsion bog'liqlik orqali davlat soliq siyosatidagi soliq yuki bilan bog'liq taktikalarning turli xil ta'siri oxir oqibatida soliq yukining iqtisodiyotga ta'siri ijobiy va salbiy tarzda bo'ladi. Mazkur bog'liqlikning holati shundan dalolat beradiki, davlat soliq yukining ta'sirini baholab borish orqali soliq tizimidagi islohotlarning samarasini o'lchash imkonini beradi va ularning ta'siri davlat byudjetini adolatli soliq tamoyilini qo'llash orqali daromadlarni maksimal shakllantirishni ta'minlashga xizmat qilishi lozim bo'ladi, mana shu shart bajarilgan holatdagina soliq yukiga ta'sir etuvchi va soliq yukining iqtisodiyotga ta'siri omillarining o'zaro korrelyatsion bog'liqligi to'g'ri respektda bo'ladi, bu esa davlatning soliq siyosatida o'z aksini topishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Soliq yukini optimal belgilash borasidagi yana bir muhim muammolar yo'nalishi bu soliq obyektlariga tortiladigan iqtisodiy jarayon va holatlarni soliqlarning adolatlilik tamoyili asosida soliq munosabatlari nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish hisoblanadi.



9-rasm. Soliq yukiga ta'sir etuvchi va soliq yukining iqtisodiyotga ta'siri omillarining o'zaro korrelyatsion bog'liqligi¹⁷

Tadqiqot ishimiz doirasida amalga oshirilgan ilmiy tahlillarimizning xulosalari va ayrim hisob-kitoblarimizga asosan quyidagi takliflarimizni ishlab chiqdik.

Birinchidan, aksiz solig'i ham soliq yukini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydigan soliq turlaridan biri bo'lganligi sababli, ushbu soliq turi bo'yicha benzin va dizel yoqilg'isini oxirgi iste'molchilarga sotadigan shaxslar uchun aksiz solig'ini

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bekor qilib, uni to'lash majburiyatini ushbu neft mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga yuklash maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, benzin va dizel yoqilg'isi ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadigan aksiz solig'i stavkasini benzin uchun 275 ming so'm va dizel uchun 264 ming so'm, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotning bir tonnasi uchun 750 ming so'mgacha oshirish (*yagona stavka*) maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, taklif etilayotgan tadbirlar aksiz solig'i ma'murchiligini takomillashtirish va kichik biznes subyektlarining soliq majburiyatlarini bajarish xarajatlarini kamaytirishga olib keladi.

Taklif etilayotgan tadbirlarning qabul qilinishi aksiz solig'i turlarini byudjet daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan unifikatsiya qilish imkonini beradi. 2022-yilning birinchi yarmida yoqilg'i quyish shoxobchasi tomonidan to'langan aksiz solig'i 1,5 trln. so'm, neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar esa 255 mlrd. so'mni tashkil qiladi, bu esa, davlat byudjetiga qo'shimcha 63,0 mlrd. so'mlik mablag' jalb etilishi va soliq to'lovchilar zimmasiga soliq yukining keskin oshishiga olib kelmaydi.

Ikkinchidan, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i doirasida soliq kodeksiga asosan temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa liniyalari va elektr uzatish liniyalari, hukumat konservatsiya qilish to'g'risidagi qaroriga asosan ko'chmas mulk obyektlari uchun mol-mulk solig'i stavkasi 0,5 foiz miqdorida belgilangan bo'lib, fikrimizcha, mazkur obyektlar uchun mol-mulk solig'i stavkasini 0,5% dan 0,8% gacha oshirish soliq yukini optimallashtirishga xizmat qiladi. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasini ushbu obyektlar uchun indeksatsiya qilish uning hajmini yillik inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda asosiy stavka darajasiga yetkazish va teng soliqqa tortish shartlarini yaratish uchun zarurdir, buning oqibatida davlat byudjetiga qo'shimcha 149,7 mlrd. so'mlik mablag' jalb etilishi va soliq to'lovchilar zimmasiga soliq yukining keskin oshishiga olib kelmaydi.

Uchinchidan, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i doirasida soliq yukini ham optimallashtirish taqozo etiladi. Tahlillarimizning ko'rsatishicha, bugungi kunda soliq kodeksiga asosan qishloq xo'jaligi yerlari uchun yer solig'ining soliq solinadigan bazasi yerning normativ qiymati hisoblanadi va qishloq xo'jaligi yerlarining soliq stavkasi yer normativ qiymatining 0,95 foizi miqdorida belgilangan. Tahlillar bu normani biroz o'zgartirishni taqozo etmoqda. Taklifimizcha, soliq stavkasini saqlab qolish, shu bilan birga qishloq xo'jaligi yerlarining 1 gektariga hisoblangan yer solig'i quyidagi miqdorlardan kam bo'lmasligi tartibini joriy etish maqsadga muvofiqdir:

sug'oriladigan yerlar uchun – 1 BHM (300 ming.so'm);

sug'orilmaydigan yerlar uchun – BHMning 1% (3 ming so'm).

Chunki, bugungi kunda 92,2 ming soliq to'lovchi qishloq xo'jaligi yerlari uchun yer solig'ini to'laydi. Bunday soliq to'lovchilarning hisoblangan soliq summasi 619,5 mlrd. so'mni yoki yer solig'i bo'yicha jami hisoblangan summaning 20 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, sug'oriladigan yerlar uchun hisoblangan soliqning o'rtacha miqdori 176,2 ming so'mni, sug'orilmaydigan yerlar uchun esa 1,3 ming so'mni tashkil etadi. Mazkur taklifning joriy etilishi hisoblarimizga ko'ra davlat

byudjetiga qo‘shimcha 449,2 mlrd. so‘mlik mablag‘ jalb etilishi va soliq to‘lovchilar zimmasiga soliq yukining keskin oshishiga olib kelmaydi.

To‘rtinchidan, aylanmadan olinadigan soliq (AOS) bo‘yicha ham bugungi kunda soliq yukining taqsimlanishi mazkur soliq bo‘yicha soliq yukining optimalligini ta‘minlashga ayrim to‘sqinliklarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, soliq kodeksiga asosan soliq to‘lovchilar uchun faoliyat turi va uni amalga oshirish joyiga qarab 22 turdagi AOS stavkalari belgilangan. Mazkur soliq stavkalarining soliq yukiga ta‘siri yuzasidan tahlillarimizdan kelib chiqib uni belgilash yuzasidan 3 ta variantni taklif etamiz.

1-variant. AOSning yagona stavkasini 3 foiz qilib belgilash. Shu bilan birga, mazkur unifikatsiya doirasida chekka hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan AOS to‘lovchilar uchun 1 foizlik imtiyozli stavkani saqlab qolish.

2-variant. AOSning yagona stavkasini 2 foiz qilib belgilash. Shu bilan birga, oyiga to‘lanadigan soliq summasi (*fermer xo‘jaliklari bundan mustasno*) Toshkent shahrida 3 BHM (900 ming) dan, Nukus va viloyat markazlarida – 2 BHM (600 ming), boshqa aholi yashash punktlarida – 1 BHM (300 ming) dan kam bo‘lmasligini belgilash.

3-variant. AOSning yagona stavkasini 3 foiz qilib belgilash. Shu bilan birga, AOS to‘lovchilarga qat‘iy yillik 30 mln. so‘m to‘lash huquqini berish. Bunda, ular tomonidan tovarlarni kirim qilinishi bo‘yicha bitimlarga soliq nazorati tatbiq etilmaydi.

Shu bilan birga, ixtiyoriy yoki majburiy ravishda QQS to‘lashga o‘tishda bunday soliq to‘lovchilarga qoldiq tovarlar bo‘yicha QQSni qoplash huquqi berilmaydi. AOS bo‘yicha turli soliq stavkalarining mavjudligi alohida hisob yuritish zarurligi tufayli vaqt va moliyaviy xarajatlarning oshishiga olib keladi.

Shu bilan birga, tahlillarga ko‘ra, AOS 368,9 ming soliq to‘lovchidan 171,3 mingtasi yoki 46,4% o‘z daromadlarini soliq hisobotlarida ko‘rsatmasligi va 23,2 mingtasi yoki 13,7% oyiga soliqni 1 BHMdan oshmaydigan miqdorda to‘lashlari aniqlandi. Hindiston va Latviya kabi mamlakatlarning tajribasida yagona aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 8% va 9% mavjud. Buyuk Britaniya, Shvetsariya va Singapur kabi mamlakatlarda aylanmadan olinadigan soliq mavjud emas.

Bundan tashqari mazkur soliq bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat‘iy belgilangan miqdorda yoki deklaratsiya asosida to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini bekor qilish maqsadga muvofiq, ushbu soliq o‘rniga yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanma solig‘i yoki QQS va foyda soliqlarini to‘lashni tanlashlari kerak bo‘ladi. Biz tomonimizdan AOS bo‘yicha soliq stavkalarini optimallashtirish hisobiga soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq yukini 342 mlrd. so‘mga kamaytirishga olib keladi va soliq yukini optimalligi ta‘minlanadi.

XULOSA

Tadqiqot ishimizni amalga oshirish yakuni doirasida bir qator ilmiy xulosalar chiqarishga hamda tadqiqot obyekti kesimida ayrim muammolarning yechimlariga qaratilgan ayrim ilmiy takliflarni ishlab chiqishga muvaffaq bo‘lindi:

Soliq yuki birinchidan, jamiyat a‘zolari zimmasiga yuklatilgan moliyaviy majburiyatni anglatadi, ikkinchidan, soliq kategoriyasining o‘zi mohiyatan ham soliq yukini ifodalaydi, uchinchidan, muayan davr mobaynida jamiyatda yaratilgan qiymatning jamiyat a‘zolari o‘rtasida qayta taqsimlanishini tavsiflaydi, to‘rtinchidan, iqtisodiy munosabatlarda yangidan yaratilgan qiymatning ijtimoiylashuvini ta‘minlaydi, beshinchidan, soliq yuki aslida jamiyatdagi ishlab chiqarish subyektlari va mulk hamda daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarning jamiyatga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan ijtimoiy va moliyaviy xizmatlarini moliyalashtirishdagi ulushini anglatadi, oltinchidan esa, davlatning ijtimoiy va moliyaviy xizmatlari kim qancha foydalangan bo‘lsa, ana shu miqdorda (hajmda) moliyaviy majburiyat olmasligi yoki teskari holatda bo‘lishini ko‘rsatib beradi va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy qayta taqsimlanishlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Soliq yuki taqsimot munosabatlari bilan korrelyatsiyasi to‘g‘ridan to‘g‘ri va bilvosita tarzida mavjud bo‘ladi. To‘g‘ridan to‘g‘ri tarzida esa, yalpi ichki mahsulotning bir qismining davlatning moliyaviy mablag‘larini shakllantirish maqsadida qayta taqsimlanishi jarayoni soliq yukini yuzaga keltiradi va uning miqdori davlatning soliq siyosatidan kelib chiqib aniqlanadi. Bilvosita bog‘liqligi esa, soliq yukining o‘zi ichida ijtimoiy xizmatlari iste‘mol etuvchi sohaga yo‘naltirilgan mablag‘lardan mehnat haqi tarzidagi daromadlari ham soliq yuki sifatida qaraladi.

Umumiy tarzda soliq yukini aniqlash deganda, aslida jamiyat a‘zolarining iqtisodiy faoliyatida topgan yangidan yaratgan qiymati (daromadi)ni qanchasini davlat ixtiyoriga jalb qilinishini hal qilish masalasi tushuniladi. Ammo, davlatning moliyaviy mablag‘larga ehtiyoji cheksiz bu obyektiv-iqtisodiy qonuniyatdir. Soliq yuki ham soliqlar singari ekvivalentsizlikka egadir, ya‘ni, kimga qancha soliq yuki belgilansa, uning evaziga shuncha miqdorda davlatning ijtimoiy manfaatlar olmasligi yoki umuman soliq yuki tushmagan individlar davlatning aksincha, ko‘proq ijtimoiy xizmatlarni iste‘mol qilishi mumkin va shu orqali soliq yukining ijtimoiy xizmatlar bilan to‘liq ta‘minlanmasligi ro‘y berib turadi va bu jamiyatni iqtisodiy jihatdan boshqarishda muhim dastak ham hisoblanadi.

Soliq yukining iqtisodiyotga yakuniy ta‘siri soliqlarning hajmi, ularning tuzilishi, ma‘muriy samaradorligi, iste‘mol, daromad va mulk solig‘i o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, davlatning umumiy iqtisodiy va ijtimoiy siyosati kabi ko‘plab omillarga bog‘liq. Shuni ta‘kidlash kerakki, soliq yukining iqtisodiyotga ta‘siri har xil turdagi soliqlar, ularning stavkalari, undirish usullari, umumiy iqtisodiy vaziyat va boshqa ko‘plab omillarning kombinatsiyasiga bog‘liq.

Ilmiy tadqiqot uslubiyotiga asoslangan holda bizga qadar soliq yuki muammosiga bag‘ishlangan amalga oshirilgan tadqiqotlar qatori biz ham soliq yukining mohiyatiga oid mualliflik yondashuvimizni keltirishni lozim topdik. Shundan kelib chiqqan holda, *soliq yuki bu* – iqtisodiy subyektlarga tegishli bo‘lgan daromad, foyda, mol-mulk, yer va boshqa soliqqa tortiladigan obyektlar doirasida

jamiyat manfaatlari uchun ularning zimmasiga yuklatiladigan moliyaviy majburiyatlar tushuniladi. Chunki, mohiyatiga ko'ra, soliq yuki aslida moliyaviy majburiyatdir.

Tadqiqot ishi doirasida ishlab chiqilgan "Soliq yukini optimal tahlil qilish uslubiyoti" makro va mikro darajada soliq yukini tahlil qilishda muhim uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu uslubiyotning asosiy mohiyati shundan iboratki, bunda soliq yuki tahlili makro va mikro darajada amalga oshirilib, uning xulosalari o'zaro integratsiyalashgan holda shakllantiriladi, soliq yukiga ta'sir etuvchi omillarni mazmunan va shaklan bog'liqlikda ikki guruhga ajratgan (soliq siyosatidagi o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish va soliq ma'murchiligi bilan bog'liq bo'lmagan omillar va soliq ma'murchiligi bilan bog'liq omillar)ning ta'siri tahlil qilingan holda ilmiy xulosalar olishga xizmat qiladi, shuningdek, uslubiyotga ko'ra, tahlil jarayonida qaysi tadqiqot (tahlil) usullaridan foydalanish lozimligi hamda xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Milliy iqtisodiyot darajasida nisbiy soliq yukini aniqlashda biz tomonimizdan taklif etilayotgan uslubiyotning mohiyati shundaki, real soliq yukini aniqlash uchun nisbiy ko'rsatkichlar asosida aniqlash lozim bo'ladi. Fikrimizcha, umumiy soliq yuki uslubiyotidagi kabi jami to'langan soliqlar summasini barchasini soliq yukini aniqlashda mutlaq ko'rsatkich qilib olish real soliq yukini ifodalay olmaydi, shu boisdan, ayrim ko'rsatkichlarni, jumladan, davlat byudjetidan iqtisodiyotga qilingan xarajatlar, moliyaviy jarimalarni soliq tushumlaridan chegirish, soliq imtiyozlari hamda undirilmay qolingan soliq qarzdorligi ko'rsatkichlarini esa, aksincha soliq yuki summasiga qo'shish maqsadga muvofiq, sababi bu ko'rsatkichlar doirasidagi tegishli soliq summalari davlat byudjetiga kelib tushishi va haqiqiy soliq yukini ifodalashi kerak bo'ladi.

Milliy iqtisodiyot darajasidagi soliq yukining nisbiy shaklini soliq to'lovchilar kesimida ham aniqlash uslubiy jihatdan to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz. Ishlab chiqilgan korxonaning nisbiy soliq yuki uslubiyoti korxonalar zimmasidagi real soliq yukini to'liq ifodalashga xizmat qiladi, chunki, korxonaning qancha soliq to'laganligini o'zi bilan aniqlash real holatni ko'rsata olmaydi. Chunki, samarasiz foydalanilgan soliq imtiyozi summasi, to'lanmagan soliq qarzdorlik summasi, to'langan moliyaviy jarimalar kabilar aslida soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatiga bog'liq bo'ladi va ularni soliq yukini aniqlashda to'langan soliq summasidan chegirib tashlagan holda aniqlash kerak bo'ladi, albatta bu ko'rsatkichlar soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukining pastroq ko'rsatkichlarda bo'lishini ifodalaydi va ayrim soliq to'lovchilar da'vo qiladiganidek, ularning zimmasidagi aniq soliq yukini ko'rsatib beradi va soliqlarning adolatlilik tamoyili qo'llanilishini ko'rsatib turadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan soliq yukiga ta'sir etuvchi va soliq yukining iqtisodiyotga ta'siri omillarining o'zaro korrelyatsion bog'liqligi holati shundan dalolat beradiki, davlat soliq yukining ta'sirini baholab borish orqali soliq tizimidagi islohotlarning samarasini o'lchash imkonini beradi va ularning ta'siri davlat byudjetini adolatlilik soliq tamoyilini qo'llash orqali daromadlarni maksimal shakllantirishni ta'minlashga xizmat qilishi lozim bo'ladi, mana shu shart bajarilgan holatdagina soliq yukiga ta'sir etuvchi va soliq yukining iqtisodiyotga ta'siri

omillarining o'zaro korrelyatsion bog'liqligi to'g'ri respektida bo'ladi, bu esa davlatning soliq siyosatida o'z aksini topishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Davlat soliq siyosatida soliq to'lovchilar zimmasida soliq yukini notekis taqsimlanishga olib kelayotgan va bu borada juda ko'plab baxslarga sabab bo'layotgan QQS bo'yicha soliq stavkasini bir muncha (3 foizga tushirish amaldagi stavkadan) va u bilan bog'liq ayrim soliq imtiyozlarini samaraligi jihatdan qaytadan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, 2023-yilgi soliq Konsepsiyasida QQS stavkasini amaldagi 15 % dan 12 % ga pasaytirish hisobiga soliq yukini kamaytirishga erishish, shuningdek, narxlarning barqarorligi ta'minlash hamda aholi va biznes ixtiyorida qolishi mumkin bo'lgan 7 trln. so'm mablag'ning ularning xarid qilish qobiliyatining oshishiga olib kelishni ta'minlashga erishish mumkin. Bu yerda davlat byudjeti doirasida o'rtacha 14 trln. so'mlik moliyaviy yo'qotish hisobiga soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukining keskin kamayishini ayrim soliq imtiyozlarini bekor qilish evaziga optimallashtirishga imkon beradi.

Aksiz solig'i ham soliq yukini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydigan soliq turlaridan biri bo'lib, mazkur soliq bo'yicha taklif etilayotgan tadbirlarning qabul qilinishi aksiz solig'i turlarini byudjet daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan unifikatsiya qilish imkonini beradi. 2022-yilning birinchi yarmida yoqilg'i quyish shoxobchasi tomonidan to'langan aksiz solig'i 1,5 trln. so'm, neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar esa 255 mlrd. so'mni tashkil qiladi, bu esa, davlat byudjetiga qo'shimcha 63,0 mlrd. so'mlik mablag' jalb etilishi va soliq to'lovchilar zimmasiga soliq yukining keskin oshishiga olib kelmaydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i doirasida soliq kodeksiga asosan temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa liniyalari va elektr uzatish liniyalari, Hukumat konservatsiya qilish to'g'risidagi qaroriga asosan ko'chmas mulk obyektlari uchun mol-mulk solig'i stavkasi 0,5 foiz miqdorida belgilangan bo'lib, fikrimizcha, mazkur obyektlar uchun mol-mulk solig'i stavkasini 0,5% dan 0,8% gacha oshirish soliq yukini optimallashtirishga xizmat qiladi. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasini ushbu obyektlar uchun indeksatsiya qilish uning hajmini yillik inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda asosiy stavka darajasiga yetkazish va teng soliqqa tortish shartlarini yaratish uchun zarurdir, buning oqibatida davlat byudjetiga qo'shimcha 149,7 mlrd. so'mlik mablag' jalb etilishi va soliq to'lovchilar zimmasiga soliq yukining keskin oshishiga olib kelmaydi.

Aylanmadan olinadigan soliq (AOS) bo'yicha ham bugungi kunda soliq yukining taqsimlanishi mazkur soliq bo'yicha soliq yukining optimalligini ta'minlashga ayrim to'sqinliklarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur soliq bo'yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan miqdorda yoki deklaratsiya asosida to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini bekor qilish maqsadga muvofiq, ushbu soliq o'rniga yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanma solig'i yoki QQS va foyda soliqlarini to'lashni tanlashlari kerak bo'ladi. Biz tomonimizdan AOS bo'yicha soliq stavkalarini optimallashtirish hisobiga soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini 342 mlrd. so'mga kamaytirishga olib keladi va soliq yukini optimalligi ta'minlanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

НАСИМОВ РАВШАНЖОН АЗИМОВИЧ

ПУТИ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВОГО БРЕМЕНИ

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В 2023.4. PhD/Iqt3509 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертационная работа выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации опубликован на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме) на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Нормурзаев Умид Холмурзаевич**
доктор экономических наук

Официальные оппоненты: **Кузиева Наргиза Рамазоновна**
доктор экономических наук, профессор

Тулаков Улугбек Тошмаматович
кандидат экономических наук, доцент

Ведущая организация: **Академия государственного управления при Президенте Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится в ____ часов « ____ » _____ 2024 г. на заседании научного совета №DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 232-43-51, e-mail: info@tsue.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер № ____). Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2024 года.
(протокол реестра № ____ от « ____ » _____ 2024 года).

С.У. Мехмонов

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

У.В. Гафуров

Секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

С.К. Худойкулов

Председатель научного семинара при Научном совете, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В качестве одной из извечных проблем финансовой и налоговой системы стран мира является факт того, что пристальное внимание уделяется долгосрочным финансовым стратегиям и тактикам, направленным на оптимальное распределение налогового бремени и тем самым обеспечение устойчивого развития экономики. По данным Международного валютного фонда, “на сегодняшний день эффективность налоговой политики стран оценивается на основе применения ряда методов оценки, анализа и определения налогового бремени в странах мира, существование налогового бремени для мирового сообщества на среднем уровне (не превышающем 35 процентов) рассматривается как фактор обеспечения финансовой стабильности в странах мира”¹⁸. Данный факт обуславливает необходимость постоянного поиска налоговыми службами стран путей оптимизации налогового бремени.

В последние годы в странах мира проводятся научные исследования по оптимальному распределению налогового бремени на основе разработки национальной налоговой политики и обеспечения сбалансированности бюджета и финансовых возможностей налогоплательщиков при ее реализации. В этой связи актуальными направлениями научных исследований являются выявление новых факторов, влияющих на уровень налогового бремени, внедрение инновационных подходов к анализу процессов распределения налогового бремени, прогнозированию уровня налогового бремени и совершенствованию методики оценки налоговой политики, изучение налогового бремени и его влияния на экономику применительно к валовому внутреннему продукту, ценам, инфляции, инвестициям, труду и потребительским рынкам.

Содержание налоговой политики, которая является основным направлением реформирования налоговой системы в новом Узбекистане, направлено на обеспечение макроэкономической стабильности в обмен на регулярное снижение налогового бремени. “В то же время результаты исследований показали ряд системных проблем, препятствующих экономическому росту в этой сфере, повышению деловой и инвестиционной активности, созданию здоровой конкурентной среды, а также обеспечению необходимого уровня собираемости налогов и других обязательных платежей, в частности: высокий уровень налогового бремени для плательщиков общих налогов, а также значительная разница в уровне налогового бремени между хозяйствующими субъектами, уплачивающими налоги на упрощенной и общей системе налогообложения”¹⁹, чему сейчас уделяется приоритетное внимание. Достижение этих задач и целей требует дальнейшего усиления научных исследований по решению таких вопросов, как распределение налогового

¹⁸ <http://elibrary-data.imf.org>.

¹⁹ Указ Президента Республики Узбекистан от 29 июня 2018 года №УП-5468 “О концепции совершенствования налоговой политики Республики Узбекистан”. – www.lex.uz

бремени между налогоплательщиками с использованием принципов справедливости налогообложения и его оптимизации.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в указах Президента Республики Узбекистан от 18 июля 2017 года №УП-5116 “О мерах по коренному совершенствованию налогового администрирования, повышению собираемости налогов и других обязательных платежей”, от 29 июня 2018 года №УП-5468 “О концепции совершенствования налоговой политики Республики Узбекистан”, от 30 октября 2020 года №УП-6098 “Об организационных мерах по сокращению теневой экономики и повышению эффективности деятельности налоговых органов”, от 15 сентября 2021 года №УП-6314 “О мерах по дальнейшему снижению административной и налоговой нагрузки для субъектов предпринимательства, совершенствованию системы защиты законных интересов бизнеса”, постановлениях Президента Республики Узбекистан от 10 июля 2019 года №ПП-4389 “О дополнительных мерах по совершенствованию налогового администрирования”, от 13 сентября 2022 года №ПП-374 “О мерах по совершенствованию порядка координации проведения проверок в деятельности субъектов предпринимательства”, а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий I. «Духовное, нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Анализ исследований по изучаемой теме показывает, что такие зарубежные ученые, как A.Agrawal, G.Zodrow, C.Rosell, T.Simcoe, S.Appelt, M.Bajgar, Ch.Criscuolo, Fe.Galindo-Rued, S.Appelt, В.Городникова, Л.М.Гохберг, Г.А.Грачева, И.А.Майбуров, В.Т. Куликова, А.П. Гофтман, А.А. Усовецкий, Д.В. Лазутина, Е.И. Комарова, А.Н. Рогожин, Е. Балацкий, А. Дробозина, Б. Рагозин, В. Белостоцкая, Д. Черник и другие в своих научных исследованиях изучили научные проблемы касавшиеся налогового бремени²⁰.

